QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ QOŃÍRAT RAYONÍ HÁKIMINIŃ SHESHIMI

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI QO‘NG‘IROT TUMANI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 13 - oktabr 245-13-185-Q/23 Qo‘ng‘irot tumani hokimligi

Qo‘ng‘irot tumanida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarida ko‘tarilgan va o‘z yechimini topmagan muammolarni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilash to‘g‘risida

O‘rganish va tahlillar natijasida aniqlangan aholining kayfiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan va haqli noroziliklariga sabab bo‘layotgan asosiy muammolarni tahlil qilish va tezkor bartaraf etish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari, “Byudjet kodeksi” hamda Hukumat qarorlarida belgilangan topshiriq(vazifa)larini inobatga olib**, qaror qiladi:**

1. Quyidagilar:

Tuman hokimining o‘rinbosarlari (B.Kurbanov, J.Seytmuratov, I.Kuchkarov, I.Babajanov, A.Mamutov, J.Ametova, M.Tajibaev) hamda tarkibiy bo‘linmalar va tashkilotlar (Yuldashev, Saklapov, Turdimuratov, Artikov) tomonidan Hukumat qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosi, murojaatlarda ko‘tarilgan va o‘z yechimini topmagan muammoli masalalarni qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha dastlabki tahlillar o‘tkazilganligi, natijada:

o‘z yechimini topmaganligi sababli aholining kayfiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan hamda noroziliklariga sabab bo‘layotgan asosiy muammolar hamda ijrosi ta’minlanmayotgan normativ-huquqiy hujjatlardagi topshiriqlar ro‘yxati shakllantirilganligi;

muammolar Hukumat bo‘g‘inlari vakolatlari doirasida hal etilishini inobatga olgan holda turli darajalarga ajratilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin. Shundan kelib chiqib:

O‘zbekiston Respublikasi darajasida hal etiladigan muammolar va topshiriq(vazifa)lar ro‘yxati **1-ilovaga muvofiq**;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi darajasida hal etiladigan muammolar va topshiriq(vazifa)lar ro‘yxati **2-ilovaga muvofiq**;

tuman darajasida hal etiladigan muammolar va topshiriq(vazifa)lar ro‘yxati **3-ilovaga muvofiq** tasdiqlansin.

2. Tuman darajasida o‘z yechimini topadigan muammoli masalalarni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha ishlab chiqilgan “Yo‘l xaritasi” **4-ilovaga muvofiq** tasdiqlansin.

3. O‘tgan davr mobaynida ijobiy yechim topmagan murojaatlarni qayta ko‘rib chiqish va tahlil qilish bo‘yicha ishlar jadallashtirilsin. Shu maqsadda 5-**ilovaga muvofiq** tarkibda murojaatlarni qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman ishchi guruhi tuzilsin.

4. **Ishchi guruh (B.Kurbanov) ikki hafta muddatda**:

2022 yil davomida va joriy yilning o‘tgan davrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi, Xalq qabulxonasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va Vazirlar Kengashi, sayyor qabullar va tuman hokimligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kelib tushgan va hozirgacha o‘z yechimini topmagan barcha murojaatlar ro‘yxatini shakllantirish;

murojaatlarda ko‘tarilgan muammoli masalalarni toifalarga va yo‘nalishlarga ajratish, shuningdek hal etish vakolatlaridan kelib chiqib Hukumat bo‘g‘inlari vakolatlari doirasida darajalarga ajratish;

tasdiqlangan investitsiya dasturlariga kiritilgan loyihalar orqali hal etiladigan muammolar ro‘yxatini alohida shakllantirgan holda qabul qilingan qonun hujjatlari va belgilangan muddatlar to‘g‘risida fuqarolarga joyiga chiqqan holda batafsil tushuntirishlar berish;

O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi darajasida ko‘rib chiqiladigan va hal etiladigan muammoli masalalarni hal etish bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi hamda Vazirlar Kengashiga takliflar tayyorlash;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi hamda Vazirlar Kengashiga kiritilgan takliflarni ko‘rib chiqish bo‘yicha mas’ul etib belgilangan respublika vazirlik va idoralari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

tuman darajasida hal etiladigan muammoli masalalarni hal etish bo‘yicha

aniq yechimlar va moliyalashtirish manbalari ko‘rsatilgan
“Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish;

tuman korxona, tashkilot, muassasa va hokimlik mas’ullarining hamda mahalla raislarining e’tiborsizligi natijasida o‘z yechimini topmagan murojaatlar ro‘yxatini alohida shakllantirish va aybdor mas’ullarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda intizomiy jazo choralari qo‘llash yuzasidan takliflar kiritish;

o‘rganish yakunlari bo‘yicha to‘plangan ma’lumotlarni **joriy yilning 25 oktabr kuniga qadar** tuman hokimiga kiritish.

5. Belgilab qo‘yilsinki, ishchi guruh rahbariga tuman korxona, tashkilot va muassasalardan murojaatlarni o‘rganish jarayonida zarur bo‘lgan ma’lumot va hujjatlarni *(davlat siri bilan bog‘liq bo‘lmagan)* so‘rab olish huquqi beriladi.

6. Tuman hokimining o‘rinbosarlari, tarkibiy bo‘linmalar, tumandagi korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari ishchi guruhga murojaatlarni o‘rganish jarayonida amaliy jihatdan ko‘maklashsin va zarur ma’lumotlar bilan ta’minlanishini shaxsan nazoratga olsin.

7. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (Kurbanov, Ametova), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Saypnazarov), tuman “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi (Mambetmuratov) hamda Yoshlar ishlari agentligining tuman bo‘limi (Saklapov) rahbarlari mazkur farmoyishning **4-ilovasi** bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi”dagi muammolarni ko‘rsatib o‘tilgan moliyaviy manbalar hisobidan o‘z vaqtida moliyalashtirilishini ta’minlasin.

8. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Kurbanov) **ikki kun muddatda** ro‘yxati mazkur farmoyishning **1 va 2-ilovasida** keltirilgan muammoli masalalarni hal etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqib Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va Vazirlar Kengashiga, shuningdek tegishli respublika vazirlik va idoralarga kiritilishini ta’minlasin.

9. Shunday tartib o‘rnatilsinki, murojaatlarda mahalla darajasida hal etilishi mumkin bo‘lgan, biroq mahalladagi mas’ullarning e’tiborsizligi va yuzaki yondashuvi natijasida o‘z yechimini topmagan muammolar aniqlangan taqdirda, ushbu hududdagi tegishliligi bo‘yicha **mahalla raislari, hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilari, xotin-qizlar faollari va profilaktika inspektorlari** o‘ziga yuklatilgan vazifalarni lozim darajada bajarmagan deb e’tirof etiladi va tegishli tartibda lavozimidan ozod qilishgacha bo‘lgan intizomiy jazo choralari qo‘llash

yuzasidan bo‘ysunuv tartibidan kelib chiqib taqdimnomalar kiritiladi.

10. Tuman korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari **bir hafta muddatda**, o‘zi rahbarlik qilayotgan tuzilmada murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha mas’ul xodimni qaytadan belgilash va uning mas’uliyatini oshirish bo‘yicha o‘z buyruqlarini qabul qilsin hamda mas’ul xodimning funksional vazifasini tasdiqlasin. Buyruq va mas’ul xodimning tasdiqlangan funksional vazifasidan ko‘chirmani tuman hokimligining tashkiliy kadrlar guruhiga taqdim qilsin.

11. Tuman hokimligining tashkiliy kadrlar guruhi (Matmuratov) Ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha bosh mutaxassis (Yuldashev) hamda Devonxona bilan birgalikda **har haftada bir marotaba** tumandagi korxona, tashkilot va muassasalarning murojaatlar bilan ishlashga mas’ul bo‘lgan xodimlari ishtirokida **murojaatlar bilan ishlash holatini muhokama qilib borsin**. Shuningdek, ular ishtirokida **har oyda bir marotaba o‘quv seminarlari** tashkil etsin.

12. Tuman hokimining o‘rinbosarlari, sektor rahbarlari kelib tushgan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o‘z vaqtida va sifatli ko‘rib chiqilishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatsin.

13. Tuman prokurori (Muftullaev)ga tumandagi korxona, tashkilot va muassasalarda jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko‘rib chiqish jarayonlarini qat’iy nazoratga olish va murojaatlarni ko‘rib chiqishga yuzaki yondashgan mas’ul va mansabdor shaxslarga ta’sirchan choralar ko‘rib borish tavsiya etilsin.

14. Tuman hokimligining matbuot xizmati (Qarajanova) jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqishda erishilayotgan ijobiy natijalarni hamda yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar to‘g‘risida keng yoritib borilishini ta’minlasin.

15. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Kurbanov) bir hafta muddatda tumanda jismoniy va yuridik shaxslarning tuman hokimi va sektor rahbarlariga murojaat qilish imkoniyatlarini soddalashtirish, bunda fuqarolar rahbarlarning shaxsiy qabul vaqtini kutib yurmasdan o‘z murojaatlarini masofadan turib yetkazishni yo‘lga qo‘yish yuzasidan takliflar ishlab chiqsin.

16. Xalq deputatlari Qo‘ng‘irot tumani Kengashi kotibiyati (Ualibaeva) ga mazkur farmoyishni ko‘rib chiqish uchun Xalq deputatlari Qo‘ng‘irot tumani

Kengashining navbatdagi sessiyasiga kiritish vazifasi yuklatilsin.

17. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi **B.Madaminov**

Qo‘ng‘irot tuman hokimining
2023-yil 13-oktabrdagi
245-13-185-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Qo‘ng‘irot tumanida O‘zbekiston Respublikasi darajasida hal etilishi lozim bo'lgan muammolar RO‘YXATI

T/r	Muammoli masalalar	Hal etish bo‘yicha takliflar	Talab etiladigan mablag‘ miqdori	Muddati	Mas’ullar
1.	Tuman markazida joylashgan 88 ta ko‘p qavatli uylar, 113 ta aholi turar joylari, 15 ta ijtimoiy soha obyektlari hamda 20 ta jismoniy va yuridik shaxslarning obyektlariga xizmat ko‘rsatuvchi 1972-yilda qurilgan 35,8 km uzunlikdagi kanalizatsiya tarmoqlari ta’mir talab ahvolda.	Tuman markazidagi 35,8 km uzunlikdagi kanalizatsiya tarmoqlari rekonstruksiya qilish zarur.	Loyihaning taxminiy qiymati 137,0 mlrd. so‘m	2023-2024 yillar	O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliyavazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi.
2.	Tuman markazidan o‘tuvchi “4R-173” avtomobil yo‘lining 23,0 km qismi ta’mirtalab ahvolda.	Joriy yilda aholining noroziliklariga sabab bo‘layotgan 12,0 km qismini ta’mirlash.	Loyihaning taxminiy qiymati 36,0 mlrd. so‘m	2023-2024 yillar	O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi.
3.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasiga qarashli Qo‘ng‘irot tumani sanitariya-epidemiologik osayishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi binosi 1978-yilda qurilgan bo'lib, bino bugungi kunda avariya holatida.	Qo‘ng‘irot tumani sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi uchun ma’muriy va laboratoriya binolarini yangidan qurish.	Loyihaning taxminiy qiymati 6,5 mlrd. so‘m	2023-yil	O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni saqlash vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.

T/r	Muammoli masalalar	Hal etish bo‘yicha takliflar	Talab etiladigan mablag‘ miqdori	Muddati	Mas’ullar
4.	“Azatliq” MFY hududidagi 1990-yil qurilgan “Ko‘p tarmoqli poliklinika binosi” bugungi kunda 50 mingdan ortiq aholiga xizmat ko‘rsatib kelmoqda. Xonalar yetishmovchiligi sababli bir xonada bir nechta shifokorlarning qabul o‘tkazishiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa aholining va shifokorlarning e’tirozlariga sabab bo‘lmoqda.	“Ko‘p tarmoqli poliklinika binosi” hududidan qo‘shimcha bino qurish.	Loyihaning taxminiy qiymati 10 mlrd. so‘m	2023-2024 yillar	O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni saqlash vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
5.	Qo‘ng‘irot tumani tibbiyot birlashmasi binolari 1973 yilgi aholi soniga *(60 ming kishiga)* mutanosib ravishda qurilgan. Hozirgi vaqtda aholi soni 135,2 ming kishini tashkil etadi. Tibbiyot birlashmasida sharoit yomonligi aholinig haqli noroziliklariga sabab bo‘lmoqda.	Tuman tibbiyot birlashmasi hududidan yangidan zamonaviy besh qavatli 300 o‘rinli **2 ta** bino yangidan qurish.	Loyihaning taxminiy qiymati 25 mlrd. so‘m	2023-2024 yillar	O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni saklash vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
6.	Tumanda suzish havzasi *(basseyn)* mavjud emasligi sababli yoshlar o‘rtasida suzish sportini rivojlantirishga imkoniyat yo‘q. Biroq, suzish sportiga qiziquvchi yoshlar ko‘pchilikni tashkil etadi.	Suzish havzasi*(basseyn)*ni qurish loyihasini 2024 yilgi investitsiya dasturiga kiritish.	Loyiha-smeta hujjatlari asosida	2024-yil	O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
7.	Tumanda mavjud **49 ta** umumta’lim maktablarining **11 ta**sida sport zal mavjud emas.	Tumandagi 11 ta *(4, 8, 9, 13, 15, 17, 22, 23, 24, 50 va 51-sonli)* umumta’lim maktablariga 12x24 o‘lchamdagi yengil konstruksiyali sport zal binolarini qurish.	Loyihaning taxminiy qiymati 23,1 mlrd. so‘m	2023-2024 yillar	O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.

T/r	Muammoli masalalar	Hal etish bo‘yicha takliflar	Talab etiladigan mablag‘ miqdori	Muddati	Mas’ullar
8.	“Ha'kim ata” MFY hududida umumiy o‘rta ta’lim maktabi mavjud emas. Mahalladagi maktab yoshidagi bolalar boshqa mahallalardagi maktablarga qatnashida qiyinchiliklar mavjud.	Mahalla aholisiga qulayliklar yaratish maqsadida 330 o‘rinli yangi maktab binosi qurishni 2024 yilgi investitsiya dasturiga kiritish.	Loyihaning taxminiy qiymati 7,5 mlrd.so‘m	2024-yil	O‘zbekiston Respublikasi Maktabgachavamaktab talimi vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
9.	“Qashı” “Qaratal” “Monshaqlı” MFYlar, “Ko'kda'rya”, “A'debiyat”, “U'stirt” hamda “Qanlı” OFYlarda davlat maktabgacha ta’lim muassasasi mavjud emas. Ushbu mahallalardagi bog‘cha yoshidagi bolalar boshqa mahallalardagi bog‘chalarga qatnashida qiyinchiliklar mavjud.	Ushbu mahallalar aholisiga qulayliklar yaratish maqsadida ularning har birida 90 o‘rinli yangi davlat maktabgacha ta’lim muassasalarini qurishni 2024-2025 yilgi investitsiya dasturiga kiritish.	Loyihaning taxminiy qiymati 35,0 mlrd. so‘m	2024-2025 yillar	O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
10.	Tuman hududidagi **16 ta** *(4, 8, 10, 13, 17, 19, 22, 23, 24, 26, 42, 50, 51, 54, 55, 57-sonli)* maktablarda oshxona, bufet mavjud emas.	Mazkur maktablarda oshxona binolarini qurishni 2024-2025 yilgi investitsiya dasturiga kiritish.	Loyiha-smeta hujjatlari asosida	2024-2025 yillar	O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
11.	Tuman hududidagi **6 ta** *(2, 23-sonli maktab filiali, 15, 31 va 48-sonli, 54-sonli maktab filiali)* maktablar ta’mirtalab ahvolda.	Maktab o‘quvchilariga zarur sharoitlar yaratish maqsadida ushbu maktablarnikapital ta’mirlashni amalga oshirishni 2024-2025 yilgi investitsiya dasturiga kiritish.	Loyiha-smeta hujjatlari asosida	2024-2025 yillar	O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.

T/r	Muammoli masalalar	Hal etish bo‘yicha takliflar	Talab etiladigan mablag‘ miqdori	Muddati	Mas’ullar
12.	Tuman hududida **6 ta** *(18, 32, 33, 34, 50 va 52-sonli)* umumta’lim maktablarida mavjud quvvatga nisbatan yuqori koeffitsientni tashkil qilmoqda. Shu sababli, o‘quv jarayonlari bir nechta smenada olib boriladi. Bu esa ota-onalarning va o‘qituvchilarning e’tirozlariga sabab bo‘lmoqda.	O‘quvchilarga ta’lim berish sifatini yaxshilash maqsasida mazkur maktablar hududidan qo‘shimcha binolar qurishni 2024-2025 yilgi investitsiya dasturiga kiritish.	Loyiha-smeta hujjatlari asosida	2024-2025 yillar	O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
13.	Tumandagi 3-sonli umumta’lim maktabining filiali binosi yaroqsiz ahvolda.	Mazkur maktab filiali binosini buzib, o‘rniga Qoraqalpog‘iston Respublikasi mahalliy byudjeti mablag‘lari hisobidan yangidan bino qurish.	Loyiha-smeta hujjatlari asosida	2024-yil	O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi.
14.	Qo‘ng‘irot tumani hududida “Ochiq byudjet” platformasi orqali 2023-yil 1-bosqichida tabiiy gaz tortish bo‘yicha 3,6 mlrd.so‘m bo‘lgan 3 ta loyiha g‘olib deb topildi. Shundan “Q1pshaq” OFY Bestam va Maqs1m ovullarini tabiiy gazga ulash (1,2 mlrd.so‘m), “A'jiniyaz” OFY markazini tabiiy gazga ulash (1,2 mlrd.so‘m) hamda “A'jiniyaz” OFY Mam1t ovulini tabiiy gazga ulash (1,2 mlrd.so‘m). Ushbu loyihalarni amalga oshirish uchun “Hududgazta’minot” AJ tomonidan texnik shart va ushbu hududlarga tabiiy gaz limiti berilmasdan qolmoqda.	Mazkur hududlarda 3 ta loyihani amalga oshirish uchun texnik shart berilishini hamda ushbu hududlarga tabiiy gaz limiti ajratish.	Mablag‘ talab etilmaydi	2023-yil	“Hududgazta’minot” AJ

Qo‘ng‘irot tuman hokimining
2023-yil 13-oktabrdagi
245-13-185-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Qo‘ng‘irot tumanida Qoraqalpog‘iston Respublikasi darajasida hal etilishi lozim bo'lgan muammolar RO‘YXATI

T/r	Muammoli masalalar	Hal etish bo‘yicha takliflar	Talab etiladigan mablag‘ miqdori	Muddati	Mas’ullar
1.	Tuman markaziy stadioni 2021-yilda qurilishi tugallanmasdan qolib ketgan. Shu sababli, tumandagi yoshlarning katta futbol bilan shug‘ullanishiga sharoit mavjud emas.	Mazkur futbol stadionini rekonstruksiya ishlarini yakuniga yetkazish. Qo‘shimcha zarur mablag‘larni ajratish.	9,0 mlrd. so‘m	2023-yil	Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
2.	Tuman markazida 1964-yillarda solingan **19 ta** ko‘p qavatli ikki qavatli uylar (karkasnıy) Qurilish sohasida nazorat inspeksiyasi (DAQNI) tomonidan bugungi kunda foydalanishga yaroqsiz deb topilgan. Mazkur uylar rennovatsiya dasturiga kiritilgan. Lekin, mazkur uylarni buzib o‘rniga yangi uylar qurish istagida bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari aniqlanmadi. Ko'p qavatli uylarning texnik ahvoli og‘ir ahvolda bo'lib, avariya yuz berish xavfi juda yuqori.	Ushbu **19 ta** ko‘p qavatli uylarni belgilangan tartibda buzish va **10 ta** ko‘p qavatli uylar egalariga byudjet mablag‘lari hisobidan kompensatsiya pullarini to‘lab berish.	Loyiha-smeta hujjatlari asosida	2023-yil	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.

T/r	Muammoli masalalar	Hal etish bo‘yicha takliflar	Talab etiladigan mablag‘ miqdori	Muddati	Mas’ullar
3.	385,1 km tuproq ichki yo‘llardan 130,45 km qismi*(“Jaslıq” ShFYda 1,5 km, “Xanjap” MFYda 1,5 km, “Kiet” OFYda 7,0 km, “Qan'lı” OFYda 3,0 km, “Qo‘nırat” OFY 5,5 km, “Qırqqız” ShFYda 2,0 km, “Tu'rkistan” MFYda 9,2 km, “Qaratal” MFYda 1,3 km, “Taraqlı” MFYda 1,5 km, “Almazar” MFYda 2,5 km, “Elabad” ShFYda 2,5 km, “Qaraqalpaqstan” ShFYda 6,5 km, “Ha'kim ata” MFYda 4,5 km, “Altınko‘l” ShFYda 6,5 km,“Qumbız” MFYda 0,5 km,“Azatlıq” MFYda 3,0 km.)* juda og‘ir holatda.	Ushbu aholi punktlari ichki yo‘llarini shag‘allashtirish ishlarini olib borish zarur.	Loyiha-smeta hujjatlari asosida	2023-2024 yillar	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
4.	Tu'rkistan MFY hududiga olib boruvchi 1,4 km markaziy yo‘llar ta’mirtalab ahvolda.	Tur'kistan MFY hududiga olib boruvchi 1,4 km markaziy yo‘llarni ta’mirlash zarur.	Loyiha-smeta hujjatlari asosida	2023-yil	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
5.	Tuman hududidagi 17,5 km markaziy ko‘chalarida tungi yoritish uskunalari mavjud emas.	Tuman hududidagi 17,5 km markaziy ko‘chalarga 475 dona tungi yoritish uskunalarini o‘rnatish zarur.	Loyiha-smeta hujjatlari asosida	2023-yil	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
6.	Tumanda 2015-2019 yillar davomida qurilgan “Altınko'l” OFYda 23 ta xonadon *(81 nafar aholi)*, “Elabat” ShFYda 90 ta xonadon *(315 nafar aholi)*, “Kiet” OFYda 30 ta xonadon *(105 nafar aholi)*, “Qon'ırat” OFYda 62 ta xonadon *(217 nafar aholi)* va “Qaratal” MFYda 79 ta xonadon *(276 nafar aholi)* tabiiy gaz tarmog‘iga ulanmagan.	Ushbu aholi punktlarini tabiiy gaz tarmog‘iga ulash zarur.	Loyiha-smeta hujjatlari asosida	2023-yil	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
7.	Tumanda 2015-2019-yillar davomida “Qan'lı” fuqarolar yig‘inida qurilgan 70 ta *(250 nafar aholi)* uylar elektr tarmog‘iga ulanmagan.	“Qan'lı” fuqarolar yig‘inida qurilgan 70 ta *(250 nafar aholi)* uylar 3,5 km elektr tarmoqlarini yangidan tortish va 1 ta transformator o‘rnatish.	Loyiha-smeta hujjatlari asosida	2023 yil	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.

Qo‘ng‘irot tuman hokimining
2023-yil 13-oktabrdagi
245-13-185-Q/23-son qaroriga
3-ilova

Qo‘ng‘irot tumanida tuman darajasida hal etilishi lozim bo'lgan muammolar RO‘YXATI

T/r	Muammoli masalalar	Hal etish bo‘yicha takliflar	Talab etiladigan mablag‘ miqdori	Muddati	Mas’ullar
1	“Jayxun-2” bolalar dam olish maskaniga yozgi dam olish mavsumi davomida yetkazib berilgan oziq-ovqat mahsulotlari va ish haqidan yuzaga kelgan qarzdorliklar bugungi kunda qadar to‘lab berilmagan.	Mavjud kreditor qarzdorlikni qoplash uchun mahalliy byudjetdan mablag‘ ajratish va tadbirkorga to‘lab berish.	116,5 mln.so‘m	2023-yil 20-oktabr	Tuman hokimining o‘rinbosarlari (B,Kurbanov, A.Mamutov), Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Saypnazarov).
2	Joriy yil aprel-may oylarida tumandagi yoshlar orasida o‘tkazilgan “Futbol” va “Mini futbol” bo‘yicha g‘oliblarni taqdirlash uchun xarid qilingan sovg‘alardan mavjud qarzdorlik shu kungacha to‘lab berilmagan.	Mavjud kreditor qarzdorlikni qoplash uchun mahalliy byudjetdan mablag‘ ajratish va tadbirkorga to‘lab berish.	227,3 mln.so‘m	2023-yil 20-oktabr	Tuman hokimning o‘rinbosari (B.Kurabnov, A.Mamutov), Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Saypnazarov).
3	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 apreldagidagi videoselektor yig‘ilishida barcha tumanlarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish maqsadidaichki imkoniyatlardan foydalangan holda “Yoshlar ijod ko‘chalari”nitashkil etish topshirig‘i berilgan. Moliyalashtirish yetarli bo‘lmaganligi sababli mazkur masala hal etilmagan.	1. “QONGIROT-QASHQADARYO ISTIROHAT BOG'I” hududida “Yoshlar ijod ko‘chasi”ga aylantirish bo‘yicha qaror loyihasini ishlab chiqish; 2. Ushbu hududda “Yoshlar ijod ko‘chasi”ni tashkil etish uchun mahalliy byudjetdan mablag‘ ajratish.	1,5 mlrd.so‘m	2023-yil 20-oktabr 2023 yil 30-oktabr	Tuman hokimning o‘rinbosarlari (B.Kurbanov, I.Kuchkarov, A.Mamutov), Yoshlar ishlari agentligi Qo‘ng‘irot tumani bo‘limi (B.Saklapov), Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Saypnazarov).

T/r	Muammoli masalalar	Hal etish bo‘yicha takliflar	Talab etiladigan mablag‘ miqdori	Muddati	Mas’ullar
4	Yangidan qurilgan “Amfiteatr” binosi “LED” monitor, kolonka, ovoz kuchaytirgich va boshqa zamonaviy asbob uskunalar bilan ta’minlanmagan. Shu sababli, konsert-tomosha va boshqa tadbirlar o‘tkazish imkoni yo‘q.	1. Tuman hokimining Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan ajratilgan mablag‘ni tumandagi istirohat bog‘ini ta’mirlash uchun ajratish to‘g‘risidagi 2022 yil 6 sentyabrdagi 465-13-185-Q/22-sonli farmoyishini bekor qilish; 2. “Amfiteatr” binosiga “LED” monitor, kolonka, ovoz kuchaytirgich va boshqa zamonaviy asbob-uskunalar xarid qilish.	969,2 mln. so‘m	2023-yil 15-oktabr 2023-yil 25-oktabr	Tuman hokimning o‘rinbosarlari (B.Kurbanov, A.Mamutov) Tuman madaniyat bo‘limi (N.Xalmuratova).
5	Tumanning ayrim hududlarida yo‘l belgilari ta’mirtalab ahvolda.	Tumanning barcha hududlarida joylashgan yo‘l belgilarini xatlovdan o‘tkazish va respublika YHXB hamda “Qoraqalpoq avtoyo‘l” boshqarmasi bilan birgalikda zarur belgilarni almashtirish, yangidan qurish va ta’mirlash choralarini ko‘rish.	Hisob-kitoblar asosida	2023-yil	Tuman hokimning o‘rinbosari (I.Kuchkarov), Tuman ichki ishlar bo‘limi (U.Sitmuratov), Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Artikov), "Qo‘ng‘irot tumani muntazam yo‘llardan foydalanish" UK (S.Kalenov), "Qo‘ng‘irot tumani yo‘llardan foydalanish" UK (B.Rzibaev).

T/r	Muammoli masalalar	Hal etish bo‘yicha takliflar	Talab etiladigan mablag‘ miqdori	Muddati	Mas’ullar
6	Tumandagi mahallalarning markazini rivojlantirish bo‘yicha “master(bosh) reja”lar ishlab chiqilmagan. Bu esa, mahallar markazini belgilash, infratuzilmani rivojlantirishda bino-inshootlarning tartibsiz va shaharsozlik qoidalariga zid ravishda qurilishiga sabab bo‘lmoqda.	1. Barcha mahallalar markazini belgilash va unda infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha “Master (bosh) reja”sini ishlab chiqish va tuman hokimligi bilan kelishish. 2. Ishlab chiqilgan “Master (bosh) reja”larni tasdiqlash bo‘yicha tuman hokimining qarori loyihasini ishlab chiqish va tuman hokimligiga kiritish. 3. Tasdiqlangan “Master (bosh) reja”larga asosan tadbirkorlik faoliyati, ko‘p qavatli uylar va yakka tartibda uy-joy qurish uchun yer uchastkalarini tasdiqlangan loyihalar va investitsiya majburiyatlar asosida auksion savdolariga chiqarish.	Mablag‘ talab etilmaydi	2023-yil 25-oktabr 2023-yil 30-oktabr 2023-yil 20-noyabr	Tuman hokimining o‘rinbosarlari (I.Kuchkarov, I.Babajanov), Tuman qurilish va kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi (G.Ibragimov).

T/r	Muammoli masalalar	Hal etish bo‘yicha takliflar	Talab etiladigan mablag‘ miqdori	Muddati	Mas’ullar
7	2017-2021 yillarda tuman hokimining qarorlari hamda auksion savdolari orqali tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun ajratilgan yer uchastkalarining ko‘pchiligida shu kungacha qurilish ishlari boshlanmagan.	1. 2021-yilgacha bo‘lgan davrda tuman hokimining qarorlari hamda auksion savdolari orqali tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ajratilgan yer uchastkalarini qayta xatlovdan o‘tkazish va Kadastr agentligining tuman bo‘limi tomonidan tuman hokimligiga taqdimnomalar kiritilishini ta’minlash; 2. Xatlovda aniqlangan belgilangan muddatlarda qurilish ishlarini yakunlamagan yer uchastkalarini hokimlik zaxirasiga qaytarish bo‘yicha da’vo arizalari kiritish; 3. Hokimlik zaxirasiga qaytarib olingan yer uchastkalarini qayta auksion savdolariga chiqarish va sotilishini ta’minlash maqsadida targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish.	Mablag‘ talab etilmaydi	2023-yil 30-oktabr 2023-yil 10-noyabr 2023-yil 31-dekabr	Tuman hokimining o‘rinbosarlari (I.Kuchkarov, I.Babajanov), Qurilish va kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi (G.Ibragimov), Kadastr agentligining tuman bo‘limi (J.Mamutov) Kadatrlar palatasining tuman bo‘limi (B.Seitov).

T/r	Muammoli masalalar	Hal etish bo‘yicha takliflar	Talab etiladigan mablag‘ miqdori	Muddati	Mas’ullar
8	Rekonstruksiya qilinayotgan “O‘zbekiston” ko‘chasi bo‘yidagi ayrim noturar va turar joylarning tashqi fasadlari achinarli ahvolga kelib qolgan. Bundan tashqari, tartibsiz va noqonuniy qurilgan obyektlar ushbu ko‘chada olib borilayotgan rekonstruksiya ishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.	1. “O‘zbekiston” ko‘chasi bo‘yida joylashgan aholi xonadonlarini hamda noturar obyektlarni to‘liq xatlovdan o‘tkazish va qonuniyligini o‘rganish; 2. Noqonuniy va o‘zboshimcha qurilgan obyektlarni buzish choralarini ko‘rish; 3. Mavjud turar va norar joylarni buzib yangidan qurish, rekonstruksiya qilish hamda ta’mirlash istagida bo‘lgan mulkdorlarga yaqindan ko‘maklashish, kredit mablag‘larini ajratish choralarini ko‘rish. 4. Ko‘cha bo‘yini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha loyihalar ishlab chiqish va tuman hokimligi bilan kelishish.	Hisob-kitoblar asosida	2023-yil 25-oktabr 2023-yil 25-noyabr 2023-yil 31-dekabr 2023-yil 25-oktabr	Tuman hokimning o‘rinbosarlari (B.Kurbanov, I.Kuchkarov), Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (A.Artikov), Biriktirilgan tashkilotlar hamda tijorat banklari rahbarlari.
9	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi balansidagi mehmonxona binosida 2022-yil iyun-dekabr oylarida “Bek batir” MChJ tomonidan ta’mirlash ishlari amalga oshirilgan. Biroq, oradan salkam bir yil o‘tganiga qaramasdan boshqarma tomonidan tadbirkorga sarflangan xarajatlar qoplab berilmagan.	Mavjud kreditor qarzdorlikni qoplash uchun mahalliy byudjetdan mablag‘ ajratish va tadbirkorga to‘lab berish.	1,198 mlrd. so‘m	2023-yil 20-oktabr	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (A.Artikov), Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Saypnazarov).

T/r	Muammoli masalalar	Hal etish bo‘yicha takliflar	Talab etiladigan mablag‘ miqdori	Muddati	Mas’ullar
10	Tuman markazidagi istirohat bog‘ida amalga oshirilayotgan qurilish va ta’mirlash ishlari moliyalashtirish manbasi yetarli bo‘lmaganligi sababli bir yildan buyon to‘xtab qolgan. Obyektda olib boriladigan qurilish va ta’mirlash ishlarining loyiha qiymati 9,6 mlrd. so‘mni tashkil etadi. Shundan bugungi kunda Qashqadaryo viloyati hokimligi tomonidan 3,0 mlrd. so‘m mablag‘ ajratilgan va mos ravishda ishlar bajarilgan. Obyektda olib boriladigan qurilish va ta’mirlash ishlarini davom ettirish uchun qo‘shimcha 6,6 mlrd. so‘m mablag‘ zarur.	Tuman mahalliy byudjeti imkoniyatlaridan kelib chiqib, bosqichma-bosqich moliyalashtirib borish maqsadga muvofiq.	Dastlabki ajratiladi-gan 1,5 mlrd. so‘m	2023-yil 30-oktabr	Tuman hokimning o‘rinbosarlari (B.Kurbanov, I.Kuchkarov), Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Saypnazarov) Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (A.Artikov).
11	Tumandagi 7 ta mahalla o‘z ma’muriy binosiga ega emas.	1. Mahalla binolarini davlat-xususiy sheriklik asosida qurish uchun tadbirkorlik subyektlarini aniqlash. 2. Qonunchilikda belgilangan tartibda yer maydonini tanlash. 3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga yer maydonlarini ajratish bo‘yicha taklif kiritish.	Hisob-kitoblar asosdia	2023-yil 25-oktabr 2023-yil 30-oktabr 2023-yil 10-noyabr	Tuman hokimning o‘rinbosarlari (I.Kuchkarov, I.Babajanov), Qurilish va kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi (G.Ibragimov), Kadastr agentligining tuman bo‘limi (J.Mamutov) Kadatrlar palatasining tuman bo‘limi (B.Seitov).
12	Tumandagi 8 ta mahallalarda faoliyat ko‘rsatuvchi profilaktika inspektorlarida zamonaviy kompyuter jihozlari mavjud emas.	1. Zamonaviy kompyuter jihozlarini harid qilish uchun mablag‘ ajratish. 2. Zamonaviy kompyuter jihozlarini harid qilish.	Hisob-kitoblar asosida	2023-yil 20-oktabr 2023-yil 30-oktabr	Tuman hokimning o‘rinbosarlari (B.Kurbanov, A.Mamutov), Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Saypnazarov).

Qo‘ng‘irot tuman hokimining
2023-yil 13-oktabrdagi
245-13-185-Q/23-son qaroriga
4-ilova

Qo‘ng‘irot tumani darajasida o‘z yechimini topishi mumkin bo‘lgan muammoli masalalar va ularni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilash bo‘yicha YO‘L XARITASI

T/r	Muammoli masalalar	Hal etish bo‘yicha takliflar	Talab etiladigan mablag‘ miqdori	Moliyalash-tirish manbasi	Muddati	Mas’ullar
1	“Jayxun-2” bolalar dam olish maskaniga yozgi dam olish mavsumi davomida yetkazib berilgan oziq-ovqat mahsulotlari va ish haqidan yuzaga kelgan qarzdorliklar bugungi kunda qadar to‘lab berilmagan.	Mavjud kreditor qarzdorlikni qoplash uchun mahalliy byudjetdan mablag‘ ajratish va tadbirkorga to‘lab berish.	116,5 mln.so‘m	Mahalliy byudjetning 2-chorak qo‘shimcha manbasi (erkin qoldiq) hisobidan	2023-yil 20-oktabr	Tuman hokimining o‘rinbosarlari (B,Kurbanov, A.Mamutov), Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Saypnazarov).
2	Joriy yil aprel-may oylarida tumandagi yoshlar orasida o‘tkazilgan “Futbol” va “Mini futbol” bo‘yicha g‘oliblarni taqdirlash uchun xarid qilingan sovg‘alardan mavjud qarzdorlik shu kungacha to‘lab berilmagan.	Mavjud kreditor qarzdorlikni qoplash uchun mahalliy byudjetdan mablag‘ ajratish va tadbirkorga to‘lab berish.	227,3 mln.so‘m	Mahalliy byudjetning 2-chorak qo‘shimcha manbasi (erkin qoldiq) hisobidan	2023-yil 20-oktabr	Tuman hokimning o‘rinbosari (B.Kurabnov, A.Mamutov), Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Saypnazarov).

T/r	Muammoli masalalar	Hal etish bo‘yicha takliflar	Talab etiladigan mablag‘ miqdori	Moliyalash-tirish manbasi	Muddati	Mas’ullar
3	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil-11 apreldagidagi videoselektor yig‘ilishida barcha tumanlarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish maqsadidaichki imkoniyatlardan foydalangan holda “Yoshlar ijod ko‘chalari”nitashkil etish topshirig‘i berilgan. Moliyalashtirish yetarli bo‘lmaganligi sababli mazkur masala hal etilmagan.	1. “QONGIROT-QASHQADARYO ISTIROHAT BOGI” hududida “Yoshlar ijod ko‘chasi”ga aylantirish bo‘yicha qaror loyihasini ishlab chiqish; 2. Ushbu hududda “Yoshlar ijod ko‘chasi”ni tashkil etish uchun mahalliy byudjetdan mablag‘ ajratish.	1,5 mlrd.so‘m	Mahalliy byudjetning 3-chorak qo‘shimcha manbasi (erkin qoldiq) hisobidan	2023-yil 20-oktabr 2023-yil 30-oktabr	Tuman hokimning o‘rinbosarlari (B.Kurbanov, I.Kuchkarov, A.Mamutov), Yoshlar ishlari agentligi Qo‘ng‘irot tumani bo‘limi (B.Saklapov), Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Saypnazarov).
4	Yangidan qurilgan “Amfiteatr” binosi “LED” monitor, kolonka, ovoz kuchaytirgich va boshqa zamonaviy asbob uskunalar bilan ta’minlanmagan. Shu sababli, konsert-tomosha va boshqa tadbirlar o‘tkazish imkoni yo‘q.	1. Tuman hokimining Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan ajratilgan mablag‘ni tumandagi istirohat bog‘ini ta’mirlash uchun ajratish to‘g‘risidagi 2022 yil 6 sentyabrdagi 465-13-185-Q/22-sonli farmoyishini bekor qilish; 2. “Amfiteatr” binosiga “LED” monitor, kolonka, ovoz kuchaytirgich va boshqa zamonaviy asbob-uskunalar xarid qilish.	969,2 mln. so‘m	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan ajratilgan mablag‘lar *(Tuman hokimligi rivojlantirish jamg‘armasi hisob raqami)*	2023-yil 15-oktabr 2023-yil 25-oktabr	Tuman hokimning o‘rinbosarlari (B.Kurbanov, A.Mamutov) Tuman madaniyat bo‘limi (N.Xalmuratova).

T/r	Muammoli masalalar	Hal etish bo‘yicha takliflar	Talab etiladigan mablag‘ miqdori	Moliyalash-tirish manbasi	Muddati	Mas’ullar
5	Tumanning ayrim hududlarida yo‘l belgilari ta’mirtalab ahvolda.	Tumanning barcha hududlarida joylashgan yo‘l belgilarini xatlovdan o‘tkazish va respublika YHXB hamda “Qoraqalpoq avtoyo‘l” boshqarmasi bilan birgalikda zarur belgilarni almashtirish, yangidan qurish va ta’mirlash choralarini ko‘rish.	Hisob-kitoblar asosida	Respublika byudjeti, jamg‘arma va mahalliy byudjet mablag‘lari	2023-yil	Tuman hokimning o‘rinbosari (I.Kuchkarov), Tuman ichki ishlar bo‘limi (U.Sitmuratov), Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Artikov), "Qo‘ng‘irot tumani muntazam yo‘llardan foydalanish" UK (S.Kalenov), "Qo‘ng‘irot tumani yo‘llardan foydalanish" UK (B.Rzibaev).
6	Tumandagi mahallalarning markazini rivojlantirish bo‘yicha “master(bosh) reja”lar ishlab chiqilmagan. Bu esa, mahallar markazini belgilash, infratuzilmani rivojlantirishda bino-inshootlarning tartibsiz va shaharsozlik qoidalariga zid ravishda qurilishiga sabab bo‘lmoqda.	1. Barcha mahallalar markazini belgilash va unda infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha “Master (bosh) reja”sini ishlab chiqish va tuman hokimligi bilan kelishish. 2. Ishlab chiqilgan “Master (bosh) reja”larni tasdiqlash bo‘yicha tuman hokimining qarori loyihasini ishlab chiqish va tuman hokimligiga kiritish. 3. Tasdiqlangan “Master (bosh) reja”larga asosan tadbirkorlik faoliyati, ko‘p qavatli uylar va yakka tartibda uy-joy qurish uchun yer uchastkalarini tasdiqlangan loyihalar va investitsiya majburiyatlar asosida auksion savdolariga chiqarish.	Mablag‘ talab etilmaydi		2023-yil 25-oktabr 2023-yil 30-oktabr 2023-yil 20-noyabr	Tuman hokimining o‘rinbosarlari (I.Kuchkarov, I.Babajanov), Tuman qurilish va kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi (G.Ibragimov).

T/r	Muammoli masalalar	Hal etish bo‘yicha takliflar	Talab etiladigan mablag‘ miqdori	Moliyalash-tirish manbasi	Muddati	Mas’ullar
7	2017-2021 yillarda tuman hokimining qarorlari hamda auksion savdolari orqali tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun ajratilgan yer uchastkalarining ko‘pchiligida shu kungacha qurilish ishlari boshlanmagan.	1. 2021 yilgacha bo‘lgan davrda tuman hokimining qarorlari hamda auksion savdolari orqali tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ajratilgan yer uchastkalarini qayta xatlovdan o‘tkazish va Kadastr agentligining tuman bo‘limi tomonidan tuman hokimligiga taqdimnomalar kiritilishini ta’minlash; 2. Xatlovda aniqlangan belgilangan muddatlarda qurilish ishlarini yakunlamagan yer uchastkalarini hokimlik zaxirasiga qaytarish bo‘yicha da’vo arizalari kiritish; 3. Hokimlik zaxirasiga qaytarib olingan yer uchastkalarini qayta auksion savdolariga chiqarish va sotilishini ta’minlash maqsadida targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish.	Mablag‘ talab etilmaydi		2023-yil 30-oktabr 2023-yil 10-noyabr 2023-yil 31-dekabr	Tuman hokimining o‘rinbosarlari (I.Kuchkarov, I.Babajanov), Qurilish va kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi (G.Ibragimov), Kadastr agentligining tuman bo‘limi (J.Mamutov) Kadatrlar palatasining tuman bo‘limi (B.Seitov).

T/r	Muammoli masalalar	Hal etish bo‘yicha takliflar	Talab etiladigan mablag‘ miqdori	Moliyalash-tirish manbasi	Muddati	Mas’ullar
8	Rekonstruksiya qilinayotgan “O‘zbekiston” ko‘chasi bo‘yidagi ayrim noturar va turar joylarning tashqi fasadlari achinarli ahvolga kelib qolgan. Bundan tashqari, tartibsiz va noqonuniy qurilgan obyektlar ushbu ko‘chada olib borilayotgan rekonstruksiya ishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.	1. “O‘zbekiston” ko‘chasi bo‘yida joylashgan aholi xonadonlarini hamda noturar obyektlarni to‘liq xatlovdan o‘tkazish va qonuniyligini o‘rganish; 2. Noqonuniy va o‘zboshimcha qurilgan obyektlarni buzish choralarini ko‘rish; 3. Mavjud turar va norar joylarni buzib yangidan qurish, rekonstruksiya qilish hamda ta’mirlash istagida bo‘lgan mulkdorlarga yaqindan ko‘maklashish, kredit mablag‘larini ajratish choralarini ko‘rish. 4. Ko‘cha bo‘yini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha loyihalar ishlab chiqish va tuman hokimligi bilan kelishish.	Hisob-kitoblar asosida	Byudjet mablag‘lari, tijorat bank kreditlari, noturar va turar joy ob’ektlari mulkdorlari mablag‘lari	2023-yil 25-oktabr 2023-yil 25-noyabr 2023-yil 31-dekabr 2023-yil 25-oktabr	Tuman hokimning o‘rinbosarlari (B.Kurbanov, I.Kuchkarov), Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (A.Artikov), Biriktirilgan tashkilotlar hamda tijorat banklari rahbarlari.
9	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi balansidagi mehmonxona binosida 2022 yil iyun-dekabr oylarida “Bek batir” MChJ tomonidan ta’mirlash ishlari amalga oshirilgan. Biroq, oradan salkam bir yil o‘tganiga qaramasdan boshqarma tomonidan tadbirkorga sarflangan xarajatlar qoplab berilmagan.	Mavjud kreditor qarzdorlikni qoplash uchun mahalliy byudjetdan mablag‘ ajratish va tadbirkorga to‘lab berish.	1,198 mlrd. so‘m	Mahalliy byudjetning yil boshiga aniqlangan qo‘shimcha man basi (erkin qoldiq) hisobidan	2023-yil 20-oktabr	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (A.Artikov), Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Sayipnazarov).

T/r	Muammoli masalalar	Hal etish bo‘yicha takliflar	Talab etiladigan mablag‘ miqdori	Moliyalash-tirish manbasi	Muddati	Mas’ullar
10	Tuman markazidagi istirohat bog‘ida amalga oshirilayotgan qurilish va ta’mirlash ishlari moliyalashtirish manbasi yetarli bo‘lmaganligi sababli bir yildan buyon to‘xtab qolgan. Obyektda olib boriladigan qurilish va ta’mirlash ishlarining loyiha qiymati 9,6 mlrd. so‘mni tashkil etadi. Shundan bugungi kunda Qashqadaryo viloyati hokimligi tomonidan 3,0 mlrd. so‘m mablag‘ ajratilgan va mos ravishda ishlar bajarilgan. Obyektda olib boriladigan qurilish va ta’mirlash ishlarini davom ettirish uchun qo‘shimcha 6,6 mlrd. so‘m mablag‘ zarur.	Tuman mahalliy byudjeti imkoniyatlaridan kelib chiqib, bosqichma-bosqich moliyalashtirib borish maqsadga muvofiq.	Dastlabki ajratiladigan 1,5 mlrd. so‘m	Mahalliy byudjetning yil boshiga aniqlangan qo‘shimcha manbasi (erkin qoldiq) qoldig‘i hamda 2023 yil 3-chorak yakuni bo‘yicha aniqlangan qo‘shimcha man basi hisobidan	2023-yil 20-oktabr	Tuman hokimning o‘rinbosarlari (B.Kurbanov, I.Kuchkarov), Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Saypnazarov) Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (A.Artikov).
11	Tumandagi 7 ta mahalla o‘z ma’muriy binosiga ega emas.	1. Mahalla binolarini davlat-xususiy sheriklik asosida qurish uchun tadbirkorlik sub’ektlarini aniqlash. 2. Qonunchilikda belgilangan tartibda yer maydonini tanlash. 3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga yer maydonlarini ajratish bo‘yicha taklif kiritish.	Hisob-kitoblar asosdia	Tadbirkorlik sub’ektlari va bank krediti mablag‘lari.	2023-yil 20-oktabr 2023-yil 30-oktabr 2023-yil 10-noyabr	Tuman hokimning o‘rinbosarlari (I.Kuchkarov, I.Babajanov), Qurilish va kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi (G.Ibragimov), Kadastr agentligining tuman bo‘limi (J.Mamutov) Kadatrlar palatasining tuman bo‘limi (B.Seitov).

T/r	Muammoli masalalar	Hal etish bo‘yicha takliflar	Talab etiladigan mablag‘ miqdori	Moliyalash-tirish manbasi	Muddati	Mas’ullar
12	Tumandagi 8 ta mahallalarda faoliyat ko‘rsatuvchi profilaktika inspektorlarida zamonaviy kompyuter jihozlari mavjud emas.	1. Zamonaviy kompyuter jihozlarini harid qilish uchun mablag‘ ajratish. 2. Zamonaviy kompyuter jihozlarini harid qilish.	Hisob-kitoblar asosida	Mahalliy byudjetning 2023 yil 3-chorak yakuni bo‘yicha aniqlangan qo‘shimcha man basi hisobidan	2023-yil 20-oktabr 2023-yil 30-oktabr	Tuman hokimning o‘rinbosarlari (B.Kurbanov, A.Mamutov), Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Saypnazarov).

Qo‘ng‘irot tuman hokimining
2023-yil 13-oktabrdagi
245-13-185-Q/23-son qaroriga
5-ilova

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni samarali tashkil etish va “mahallabay” ishlash tizimi natijadorligini yaxshilash bo‘yicha Qo‘ng‘irot tumani ishchi guruh tarkibi

T/r	F.I.O		Lavozimi
1	B.Kurbanov	-	Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari **–Ishchi guruh rahbari**
2	B.Najimaddinov	-	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qo‘ng‘irot tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri–**Ishchi guruh rahbari o‘rinbosari**
3	D.Yuldashev	-	Tuman hokimligi ijro intizomi bo‘limi bosh mutaxassisi–**Ishchi guruh mas’ul kotibi**
4	I.Sattarbergenov	-	1-sektor kotibi
5	A.Xojametov	-	2-sektor kotibi
6	Q.Babajanov	-	3-sektor kotibi
7	A.Eshmuratov	-	4-sektor kotibi
Ishchi guruh a’zolari:			
8	J.Mambedullaev	-	Tuman adliya bo‘limi boshlig‘i
9	E.Turdimuratov	-	Qo‘ng‘irot tumani kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i v.v.b
10	J.Bulatov	-	Tuman Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi rahbari
11	B.Saklapov	-	Yoshlar ishlar agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i
12	A.Kudiyarov	-	Tuman hokimligi huquq maslahatchisi
13	G.Matmuratov	-	Tuman hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari

Izoh:

- Ishchi guruh a'zolari boshqa ishga o'tgandan uning o'rniga lavozimga tayinlangan xodim ishchi guruh a'zosi hisoblanadi;

- Ishchi guruhga zaruriyatga ko'ra boshqa tashkilot va idoralarning xodimlari jalb qilinishi mumkin.